



ZAVQIY ASARLARIDA QO‘LLANGAN TOPONIMLAR

Umaraliyeva J.U.

Qo‘qon DPI, 2-kurs magistranti

Tayanch so‘zlar: toponimiya, apellyativ, etnotoponim, indikator, gidrotoponim, oykonim, ekzotik nom, polisonim, urbonim.

Ключевые слова: топонимия, апеллятив, этнотопоним, индикатор, гидротопоним, ойконим, экзотическое назначение, полисоним, урбоним.

Key words: toponymy, appellative, ethnotoponym, indicator, hydrotoponym, oikonym, exotic name, polysony, urban.

Onomastikaning katta qismini tashkil etuvchi toponimika grekcha topos – joy va onoma (yoki onima) – nom so‘zlaridan tarkib topgan bo‘lib, joy nomlarini o‘rganuvchi soha hisoblanadi. Toponimlarning majmui toponimiyani tashkil etadi.

Qo‘qon adabiy muhitining vakili bo‘lgan Zavqiy ijodida vodiya tegishli bo‘lgan joy nomlari ko‘pchilikni tashkil etadi. Zavqiy asarlarida 41 ta joy nomidan foydalangan bo‘lib, ularni quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

I Xorijga aloqador toponimlar.

1. Chet el mamlakatlarini ifodalovchi toponimlar: Rum, Xitoy, Misr, Ka‘non, Girmon, Afg‘on, Sibir, Chin;

Xitoy atamasi etnotoponim hisoblanib, (urug‘, qabila, xalq, millat nomlari – etnonimlar asosida yaratilgan joy nomlari fanda etnotoponimlar deb yuritiladi) mamlakatning shimolidagi kidan qabilasi nomidan olingan. Zavqiy hajviyalaridagi Xitoy sememasining birlamchi semasi tabobat o‘lkasi sanaladi.

Yo‘ldoshni dermish Xitoy tabibi,

Bor bod muxolifi yurakka.

(Zavqiy, 120)

Yaqin tarixdagi qarashlarga ko‘ra Sibir nomining assotsatsiyada birinchi bo‘lib surgun va sovuq mamlakat ma‘nosi anglashilgan. Xalq orasida surgun leksemasi tabuga aylanib, asosan, Sibir shu ma‘noda ishlatilgan. Zavqiy asarlarida ham ayni shunday o‘rinda qo‘llangan ushbu toponimning kelib chiqishi “Qadimda Ural tog‘lari bilan Irtish daryosi oralig‘i”da joylashgan Sibir xonligiga borib taqaladi.

Manbalarda antropotoponimlar sirasiga kiritilgan nomning izohlarida shibir – “botqoq”, “to‘qayzor” so‘zidan kelib chiqqan degan qarashlar ham mavjud.

*G‘o‘dayib Sibir qilamiz debon,
Bir avaxtaga solmading baring.* (Zavqiy, 156)

2. Chet el shaharlarini ifodalovchi toponimlar: Madina, Istanbul, Makka, Hujjoj, O‘sh, O‘rotepa, Xo‘jand, Qissako‘z, Bozorqo‘rg‘on, Qoshg‘ar;

Zavqiy hoji shoirlardan hisoblanib tog‘asi bilan birgalikda yosh paytlaridayoq haj amallarini bajarish uchun safarga otlangan. Tabiiyki, bu sayohat ijodkor qalamini siljitmay qo‘ymaydi. Shoir qadamini yetgan Madina shahri arabchada shahar ma‘nosini anglatib ham turdosh ot, ham atoqli ot vazifasini bajaradi. N.Uluqov bunday atoqli otlarni “ekzotik nomlar” (yot, begona) deb atab, Madinani polisonimlar qatoriga kiritadi. Zavqiy ushbu toponimni radifga olgan holda sog‘inch ifodali g‘azallar yaratgan:

*Boshing‘a tushub sho‘rishi savdoyi Madina,
Ko‘nglung‘a yana dog‘i tamannoyi Madina.* (Zavqiy, 51)

Toponimlarning makroko‘lamida shahar nomlari urbonim deb ataladi. Bunday urbonimlardan yana biri bo‘lgan Qoshg‘ar Xitoyning g‘arbiy qismidagi shahar bo‘lib, mazkur toponim “qosh toshi (nefrit) koni” degan ma‘noni anglatadi.

*Berdilar shahrni ham rishtai ummid uzulib,
...Emdi bu holda kelishmish yana Qoshg‘ar buzilib.* (Zavqiy, 85)

3. Diniy nom bilan aloqador toponimlar: Xalil, Multazam, Xatiym;

4. Tog‘ nomini bildiruvchi toponim: Bestun.

II O‘lkamiz hududiga aloqador toponimlar.

1. Viloyat nomini bildiruvchi toponimlar: Farg‘ona, Andijon, Buxoro;

Farg‘ona toponimining yuzaga kelishi haqida ko‘plab qarashlar mavjud. “Jahonnoma” asarida keltirilishicha, Farg‘onani No‘shiravon bunyod qilgan ekan; bu yerga har bir joydan bittadan qabila olib kelgan. Shunday qilib, turli joylardan kelgan kishilar imoratlar qurib, ekinlar ekkan. Bu kishilar Az har xona “har xonadonlik” deb atalgan. Farg‘ona so‘zi ana shundan olingan.

Farg‘ona fors-tojik tilidagi parkana “atrofi berk vodiy” so‘zidan nom olgan deyish haqiqatga yaqindir.

*Falak, afsuskim, dastingda obu dona Farg‘ona,
Havodis otashida aylading vayrona, Farg‘ona.* (Zavqiy, 50)

Buxoro nomi ilk bor II asrda yunon astronomi Klavdiy Ptolomeyning “Geografiya” asarida uchraydi. Tojikistondagi Mug‘ tog‘idan topilgan VIII asrga oid sug‘d hujjatlarida esa Puxar shaklida tilga olingan. Buxoro sanskritcha vixara so‘zidan olingan bo‘lib, “ibodatxona” ma‘nosini anglatadi, degan fikr bor. Qadimgi turkiy run yozuvlaridagi Kulteginga bag‘ishlangan yodgorlikda Buqaraq degan joy nomi uchraydi. Akademik Vladimirsev o‘sha yodgorlikda So‘g‘d nomi



ham uchrashini aytadi va Buqaraq haqiqatdan Buxoro degan soʻz boʻlsa, oʻyrat (oltoy) qahramon eposlarida Buxarin cherik yaʼni “Buxoro qoʻshinlari” degan soʻzlar uchraydi deb yozadi.

Buni “sak sayr” der Buxor ahli,

Hech yarashmas bu feʼl insona. (Zavqiy, 139)

2. Tuman nomini ifodalovchi toponimlar: Oltiarigʻ, Shahrixon;

Toponimlar grammatik jihatdan bir va undan ortiq tarkibiy qismlardan iboratdir. Bu tarkibiy qismlar mustaqil soʻzlar yoki toponimik formantlar (qoʻshimchalardir). Tipik toponimlar jumladan oykonimlar (aholi turar joylari) ikki va undan ortiq komponentlardan (apellyativ sathdan) iborat boʻladi, birgina soʻzdan tarkib topgan toponimlar esa biron tarkibiy qismi tushib qolgan ellips nomlardir. Qoʻqon xoni Umarxon barpo etgan shahar yoxud soy deya talqin etiluvchi Shahrixon atoqli ot sifatida XIX asrdan yuritila boshlangan. Bu nom fors-tojikcha izofali birikma (shahar-i-xon)dan tuzilgan boʻlib, “xon shahri” degan maʼnoni anglatadi. Shahrixonsoydan kelib chiqqanini hisobga olsak bu nomni gidrotoponim deya olamiz. Zavqiy XIX asr oʻrtalari XX asr boshlarida yashab oʻtgani holda u ijod qilgan davrda Shahrixon yangi va mashhur hudud edi.

Endi kelib munda Shahrixondin,

Tutar erdi oʻzin baland xondin. (Zavqiy, 166)

3. Shahar nomini anglatuvchi toponimlar: Xoʻqand, Margʻinon, Chirikjik, Fargʻona, Andijon, Shosh, Shahrisbz, Buxoro, Namangan, Chust, Koson;

Qoʻqon adabiy muhitining vakili boʻlgan Zavqiy ona shahrini koʻp eʼtirof etadi. Qadimiy shahar nomining turlicha izohlari mavjud boʻlib har biri oʻziga xosdir.

Dillari abtar-u, botinlari biyno aralash,

Xotiri jamʻ Xoʻqand ahliga gʻavgʻo aralash. (Zavqiy, 84)

Tarixan mashhur boʻlgan Qoʻqon diyori koʻpgina sayyohlarning ham eʼtirofiga sazovor boʻlgan. Jumladan, Oʻrta Osiyoga sayohat qilgan Rasek shunday yozadi: “Qoʻqon toʻgʻrisidagi dastlabki maʼlumotlar X asrga toʻgʻri keladi. Uni XIII asrda mongollar xonavayron qilgan. Hozirgi shahar 1732-yilda qurilgan, goʻzal Fargʻona vodiysiga kiraverishda qulay joyda boʻlganidan tezda qaytadan tiklanadi va xonlik poytaxti boʻlib qoladi.” Qoʻqon toponimi yozma manbalarda Xoʻqand, Xuqand, Xukand tarzida tilga olinadi, ayni paytda Zavqiy asarlarida ham. Qoʻqon toponimning bugungi fonetik oʻzgarishlardan oʻtib hosil boʻlgan koʻrinishidir. Toponimning kelib chiqishi haqida har xil fikrlar bor. Jumladan, H.Hasanov shunday yozadi: “Bizningcha shahar nomini “yoqimli shahar”, “qandday Shirin” deb izohlash toʻgʻri emas. Qoʻqon soʻzining negizi xu, formanti – qand. Qand bizning qishloq, shahar maʼnosida ekanligi shubhasiz. Lekin xu nima degani”ni

izohlashga intilgan olim turkolog akademik Kononovning fikriga asoslanadi. Ya'ni xu shamol ma'nosida bo'lib Xuqand "shamol shahri", "sershamol shahar" dir.

Tarixi jahon binosida badkor mucha ko'p,

Xo'qand aro baloga giriftor muncha ko'p. (Zavqiy, 161)

Zavqiy yashab ijod etgan hududlardan biri Marg'ilon shahri toponimiyasi haqida gap ketganda, Is'hoqxon Ibratning "Farg'ona tarixi" asari ahamiyatlidir. Muallif shaharning bunyod bo'lishida "Forsistondan muhojir bo'lib kelgan, o'ltirg'on bechora dehqoni bodyashinlar"ning roli katta bo'lganligini ta'kidlaydi. Shahar nomining kelib chiqishi fors tilidagi "murg'u non", ya'ni "tovuq va non so'zi bilan bog'lanadi. Emishki, Iskandar Zulqarnaynning sharqqa qilgan yurishlari davrida Farg'ona yerida ishlovchi Forsistondan kelgan aholi uning yo'liga tovuq va non bilan peshvoz chiqib, undan bir shahar bunyod etib berishini so'raganlar. Makedoniyaliklarning "bu nima?" degan savoliga ular "Murg'u non" deb javob bergan ekanlar. Ammo bu qarash to'liq isbotini topmagan. S.Qorayev tadqiqotlarida marg' "o'tloq", "pichanzor" ma'nosini tahmin qiladi. o'zakdosh deb hisoblaydi. Biroq Zavqiy asarlarida bunday ko'rinishdagi topovariant uchramaydi. Bu so'z Marg'i etnonimidan olingan deb qarasa, Zavqiy she'rlarida keltirilgan Marg'inon etnotoponimdir. Qadimgi atalishidagi -on yoki -ot qo'shimchalari ko'plik belgisi deb olinsa, bu leksema "marg'ilar yashaydigan joy" ma'nosini bildiradi. Suyun Qorayev ta'kidlaganidek, Marg'inon nomining Marg'ilon shakli o'zbeklar talaffuzida keyinchalik vujudgan kelganini hisobga olsak, Zavqiy yashagan davrda hali bu hodisa sodir bo'lmaganiga guvoh bo'lamiz:

Xudoyordek yana bandasi xon o'lmasin hargiz,

Xususan Marg'inon-u Zavqiy jon Andimdin ayrildim.

(Zavqiy, 77)

Andijon nomining kelib chiqishi ham xilma-xil qarashlarga boy bo'lib, H.Hasanov tadqiqotlarida uni ikkiga ajratish mumkinligini tahmin qiladi. "Andi – qabilaning nomi. Andijonliklarni hatto qisqacha "andi" deb ham ataganlar; jon qo'shimchasi, ehtimol, qadimiy terminlardan biri – gan, gon bo'lib, daryo ma'nosini anglatadi. Zavqiy lirikasida aynan shu qisqa shaklni uchratish mumkin.

Andi degan shaharg'a tushdi shitob uy puli,

Ayladi ko'p odamni xonaxarob uy puli. (Zavqiy, 141)

Toponimist Suyun Qorayev shunga o'xshash bir qancha izohlarni keltirib yozadi: "Andi – yaqin; gon, kon, jon so'zlari "suv", "soy" ma'nolarini anglatgan. Demak, Andijon toponimi "soyga yaqin", "soy bo'yi", "suv bo'yi" ma'nosida. Mo'g'ulchada and so'zining geografik yaqin ma'nosi yo'q. Mo'g'ulcha anda "qon-qardosh", arabcha aqraba (quda-anda) so'zi bilan ma'nodosh. Har qanday



shahar-qishloq suv yonida bo‘lgan; chaqar mo‘g‘ulcha emas, undan oldin paydo bo‘lgan bo‘lsa, andijon ham mo‘g‘ullardan oldin paydo bo‘lgan”.

Bul ajoyib hodisa, ko‘r, xalqni hayron ayladi,

Andijon mulkini bir soatda vayron ayladi. (Zavqiy, 106)

Qator manbalarda Shosh Toshkentning tarixiy shakli deya e’tirof etiladi. Shahar toponimlarini tadqiq qilgan Suyun Qorayev ham buni tasdiqlaydi: “Toshkent shahrining nomi yozma manbalarda Choch, Chochiston, Shosh, Shoshkent shakllarida uchraydi. Choch so‘zi ham so‘g‘d tilida “tosh” demakdir.” Toponimning “tosh shahar” ma’nosini anglatishi ma’lum. Izlanishlarga ko‘ra shosh o‘z davridagi tosh so‘zining “mahalliy bir shakli”dir. Nomning paydo bo‘lishini arablar tashrifi bilan bog‘lab arab alifbosida ch fonemasi mavjud bo‘lmaganligi uchun Chochni Shosh deya taffuz qilishgan degan izohlar noto‘g‘ridir. Chunki shosh so‘zi arablargacha ham O‘rta Osiyoda keng tarqalgan bo‘lgan. Aslida Choch ham, Shosh ham, Tosh ham o‘z davrida ayni bir hududni ifodalash uchun xalq orasida ishlatilgan topovariantlardir.

Xudoyor qochdi-ketdi, julus o‘rusg‘a yetdi,

Hukmin ravona etdi to Shoshu Andijonlar. (Zavqiy, 123)

Zavqiy yashagan vodiy shaharlaridan biri Namangan nomi dastlab “Boburnoma”da tilga olingan. Ayrim olimlarning izohlarida bu atoqli otning kelib chiqishi ikki qismga ajratilgan holda tahlil etilib, gon shakli “suv”, “daryo”, Namakgon – “sho‘rsuv”, “mineral suv”, “moyli suv” deya talqin etiladi. Boshqa bir tadqiqotlarda bu murakkab toponim uch qismga ajratiladi: “nav+man+gon” ya’ni, Nav – “yangi”, man – “saroy” va g‘on, kon, gon – “suv” yoki “soy” demakdir.

Andijon, Marg‘ilon, Xo‘qandiysiz,

Yo Namangon, Chust, Kosona. (Zavqiy, 139)

Zavqiy she’rlarida Chirikjik nomli toponim ham uchraydi. Uning izohi hech bir toponimik lug‘atlarda uchramaydi. Zavqiy lirikasida o‘z shevasining sezilarli alomatlari borligini hisobga olsak, nomni qo‘shma so‘zli toponim deb tahlil qilish mumkin. Suyun Qorayevga ko‘ra “Chirik – qishloq. Samarqand obl. Kattaqo‘rg‘on r-ni. Mo‘g‘ul tilida chirik (cherik) “qo‘shin”, “askar” degan so‘z. Qipchoq o‘zbeklari, qirg‘izlarda chirik yoki cherik degan urug‘ bo‘lgan. Jik esa chekning sheva variant deb qaraydigan bo‘lsak, “chek deganda xon va oila a’zolarining, amaldor, ruhoniy va mashhur shaxslarning, umuman har qanday kishilarning xususiy yerlari tushunilgan. Shu bilan birgalikda Farg‘ona vodiysida chek so‘zi muayyan yer o‘lchovi ham hisoblangan.” Bu fikrning isboti o‘laroq yoziladi: “Andijon viloyati uchun xos bo‘lgan darakchi termin – indikatorlardan biri chek so‘zi “bo‘lib berilgan xususiy yer maydoni” demakdir. Shunday qilib,

nom tarkibidagi chek termini toponim yasovchi formant bo'lib, "qishloq egasi", "urug' egasi" ma'nolari anglashiladi. Ammo boshqa bir o'rganishlarga ko'ra, -jik, -jiq qo'shimchasi kichrashtirish ma'nosida qo'llanilib, hozirgi o'zbek adabiy tilidagi -cha qo'shimchasiga teng keladi. Bunday toponimlar Xorazm vohasida keng tarqalgan.

Qoziyni Chirikjikda shahr ichra,

Xoja Ahmad eshonni bo'ldi, - deng. (Zavqiy, 174)

4. Qishloq nomini ifodalovchi toponimlar: Yormazor, Mingtepa, Qaynar, Qaroqchiqum, Beshiktosh;

Zavqiy yashab ijod etgan Farg'ona vodiysidagi qishloqlardan biri Yormozor toponimi ikki so'zdan yor va mozor so'zlaridan kelib chiqqanligi shubhasizdir. Tarkibning avvalidagi yor so'zi "jar" ma'nosini anglatadi. Mozor – o'lkamiz hududidagi toponimlar tarkibida ko'p uchraydigan termin sanalib, arabcha "sig'inish joyi" demakdir. Joy nomlarini tanlashda yaxshi mo'ljal vazifasini bajarib, saqlanish vaqti uzoq bo'lganligi uchun ko'p nomlar tarkibida mazkur so'z uchraydi. Qarluq-qipchoq lahjasiga mansub aholi vakili bo'lganligi uchun Zavqiy asarlari dialektida "a"lashish holatlari kuzatiladi. Jumladan, Yormozor – Yormazor kabi.

Abdurahmonboy yasab bir qasrkim jannatfizo,

Yormazor ichra qilib bir madrasa oliy bino. (Zavqiy, 178)

Oykonimlarning ma'lum bir qismi yerning geomorfologik xususiyatlari asosida nom olgan bo'ladi. Yer tuzilishi, sathi bilan bog'liq bo'lgan bunday oykonimlar geomorfologik oykonimlar deb ataladi. Yerning relyefi asosida yuzaga kelgan toponimik hududni XIX asrda vayron qilishga urinishlar bo'lgan. 1899-yilda qo'zg'olondan keyin Mingtepa qishlog'i o'rniida yangi Russkoye qishlog'i paydo bo'ladi. Qishloqning aholisi bir qismi haydalib, bir qismi yo'q qilingandan keyin ruslardan 200 oila olib kelinadi. Zavqiy she'rida ayni shu qo'zg'olon haqida yozadi.

Ey, kasofatlik vujuding nahsidin Mingtepada

Xonavayron bo'ldi bir mingmanzil-u ma'vo, eshon.

(Zavqiy, 149)

Zavqiy qalamga olgan toponimlardan yana biri Beshiktosh joy nomidir. Toponimikaga ulkan hissa qo'shgan olim H.Hasanovning tadqiqotlarida toponimlarni til qoidalari nuqtai nazaridan va shakllanish bosqichlariga ko'ra turlarga ajratar ekan, Beshiktoshni "joyning holati, xosiyati, yer yuzasiga va iqlimiga bog'liq nomlar" sirasiga kiritadi va "nurash natijasida hosil bo'lgan geomorfologik shakl" sifatida ta'riflaydi. S.Qorayev esa nomni o'xshashlik asosida berilgan deb hisoblaydi, ya'ni Beshiktosh – shaklan beshikka o'xshagan



qoya bo'lganligidan toponim kelib chiqqan. Umuman olganda, har ikki qarash ham bir-birini inkor etmagani holda Zavqiy lirikasidan munosib o'rin olgan.

*Shavkat bilan sultonimiz keldi Beshiktosh ustina,
Izzat bila na'laynini shahlar qo'yub bosh ustina.*

(Zavqiy, 109)

5. Mahalla va ko'cha nomini bildiruvchi toponimlar: Xishtko'fruk va boshqalar.

Toponimlar nafaqat tilshunoslik, balki til tarixi va dialektologiya fanlarining kesishgan nuqtasida o'rganilsa samarali natija beradi. Masalan, ko'prik turdosh otining XIX asrdagi shakli ko'fruk bo'lib, uning g'isht sifat apellyativining qarluq-qipchoq sheva varianti xisht so'zi bilan birikishi natijasida hosil qilingan Xishtko'fruk toponimi Zavqiy lirikasidan joy olgan. Ushbu toponimik obyektida g'ishtdan qurilgan masjid mavjud bo'lib, mahalla nomiga asos bo'lgan. Bu joy bugungi kunda ham mashhur sanalib, jome' masjidida xalq orasida G'ishtli masjid deb yuritiladi.

*Kuyub ikki taraf Xishtlik masjiddin hovli, do'konlar,
Biling, to bu taraf Xishtko'fruku ham Jome', kaffonlar.*

(Zavqiy, 89)

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. Toshkent., 2022.
2. Ҳасанов Х, Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. Т.: Фан, 1965. – Б.47.
3. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимикаси. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2005. – Б. 45.
4. Рацек В. Ўрта Осиёни кезганда. Т., 1972. – Б. 9.
5. Исҳоқхон Ибрат. Фарғона тарихи. Нашрга тайёрловчилар: Ҳ.Бобобеков, М.Ҳасаний. Т.: Камалак, 1991. – Б. 266-267.
6. Дўсимов З. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. Т.: Ўқитувчи, – Б. 186.
7. Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. Т.: Фан, 1989. – Б.24.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada Qo'qon adabiy muhitining vakili Zavqiy she'rlarida qo'llangan toponimlar leksik-semantik guruhlariga ajratilgan holda tahlil etilgan. Nomlarning kelib chiqishi va semantikasi atroficha izohlangan. Har bir toponimning ma'naviy xususiyatlari keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье анализируются топонимы, используемые в стихотворениях Завки, представителя литературной среды Кокана, путем разделения их на лексико-семантические группы. Подробно объяснено происхождение и семантика названий. Дана духовная характеристика каждого топонима.

SUMMARY

In this article, the toponyms used in the poems of Zavki, a representative of the literary environment of Kokand, are analyzed by separating them into lexical-semantic groups. The origin and semantics of the names are explained in detail. The spiritual characteristics of each toponym are given.